

**O‘zbekiston yoshlar ittifoqining Toshkent pediatriya tibbiyat institutidagi  
boshlang‘ich tashkiloti hisobot-saylov yig‘ilishi**  
**BAYONI №01-son**

2023-yil 3 oktabr

Toshkent shahri

**Raislik qiluvchi:** M.A. Axmedova - Toshkent pediatriya tibbiyat instituti yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori

**Kotib:** A.K. Xudayberdiyev - Toshkent pediatriya tibbiyat instituti yoshlar bilan ishslash, ma‘naviyat va ma‘rifat ishlar bo‘limi boshlig‘i

**Qatnashdi:** O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent shahar hududiy Kengashi raisi maslahatchisi O.Sobitov, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent shahar hududiy Kengashi bo‘lim boshlig‘i H.Axadova, 200 nafar delegatlar

**KUN TARTIBI:**

1. Boshlang‘ich tashkilot tomonidan o‘tgan davr mobaynida amalga oshirilgan ishlarini baholash to‘g‘risida;
2. Tanlov komissiyasi xulosasi asosida tavsiya etilgan Yoshlar Kengashi tarkibi, yoshlar yetakchisini saylash to‘g‘risida.
3. Boshqa masalalar.

---

(M.Axmedova,A.Xudayberdiyev, O.Sobitov, H.Axadova)

Hisobot-saylov yig‘ilishi boshida Toshkent pediatriya tibbiyat instituti yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori M.A. Axmedovning kirish so‘zi tinglandi.

Yig‘ilish raisi tomonidan hisobot-saylov yig‘ilishini ochiq deb e’lon qilish taklifi bildirildi va delegatlar tomonidan maqullandi.

So‘ng hisobot-saylov yig‘ilishining belgilangan tartibda o‘tishini nazorat qilish maqsadida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent shahar hududiy Kengashi raisi maslahatchisi O.Sobitov, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent shahar hududiy Kengashi bo‘lim boshlig‘i H.Axadovalardan iborat yig‘ilish kotibiyati va Y.Umarov, A.Abduraxmonovlardan iborat sanoq guruhi saylandi.

Hisobot-saylov yig‘ilishida asosiy ma‘ruzalar uchun 15 daqiqa, muzokaralar uchun 5 daqiqa vaqt berilishi taklifi bildirildi va delegatlar tomonidan ma‘qullandi.

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan Toshkent pediatriya tibbiyat instituti yoshlar yetakchisi X.Abidovga so‘z berildi. Mazkur universitetda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha 2022-2023 - o‘quv yili mobaynida amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha hisoboti tinglandi.

Hisobot yuzasidan muzokarada Yoshlar bilan ishslash, ma‘naviyat va ma‘rifat bo‘limi boshlig‘i A.Xudayberdiyev, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent shahar

hududiy Kengashi raisi maslahatchisi O.Sobitov hamda 3-bosqich talabasi J.Mamatovlar so‘zga chiqdilar.

Ular boshlang‘ich tashkilot tomonidan amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan masalalar, jumladan, talabalar muammolarini o‘rganishga qaratilgan so‘rovlari, institut hududida o‘rganish va reydlar o‘tkazish, ilmiy-pedagogik kengash yig‘ilishlariga masalalar olib chiqishga e’tibor qaratish tavsiya etildi.

So‘ng boshlang‘ich tashkilotning o‘tgan davrdagi faoliyati ovozga qo‘yilib, delegatlar tomonidan qoniqarli deb topildi.

Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent shahar hududiy Kengashi raisi maslahatchisi O.Sobitov tomonidan Hududiy tanlov komissiyasining 2023-yil 11-sentabrdagi 02-06/B-11-son xulosasi o‘qib eshittirildi.

Yoshlar yetakchiliga X.Abidov nomzodi taklif etildi. Nomzodlarning saylovoldi dasturi eshitildi. So‘ng ularning nomzodi ovozga qo‘yilib, 98 % ovoz bilan X.Abidov yoshlar yetakchiliga qayta saylandi.

Yig‘ilish kun tartibidagi barcha masalalar yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olib, yig‘ilish qaror qiladi:

1. O‘zbekiston yoshlar ittifoqining Toshkent pediatriya tibbiyat institutidagi boshlang‘ich tashkilot yoshlar yetakchisi X.Abidovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin hamda boshlang‘ich tashkilotning 2022-2023 - o‘quv yili mobaynidagi faoliyati qoniqarli deb topilsin.

2. Hududiy Tanlov komissiyasining xulosasiga asosan O‘zbekiston yoshlar ittifoqining Toshkent pediatriya tibbiyat institutidagi boshlang‘ich tashkilot yoshlar yetakchisi etib 1994-yilda tug‘ilgan, institutning amaldagi yetakchisi Abidov Xasanxodja Alisherovich saylansin.

3. Yoshlar Kengashi tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ittifoqning Toshkent pediatriya tibbiyat institutidagi boshlang‘ich tashkiloti Yoshlar yetakchisi, yo‘nalishlar, fakultetlar koordinatorligi uchun ma‘qullangan nomzodlar boshlang‘ich tashkilotning umumiyligi yig‘ilishi qarori bilan saylangan va tasdiqlangan kundan boshlab quyidagi tartibda:

Yoshlar yetakchisi bo‘lgan muassasaning professor-o‘qituvchisi va boshqa toifadagi xodimiga Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-avgustdaggi 517-son qarori bilan tasdiqlangan nizomning 17<sup>1</sup>-bandiga yohud bakalavr va magistratura bosqichidagi talabalarga Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi 59-son qarori bilan tasdiqlangan nizomning 201-bandiga muvofiq Rektorming yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi – Yoshlar yetakchisiga har oylik qo‘srimcha haq to‘lab borish;

Yoshlar Kengashi a’zolari yo‘nalishlar va fakultetlar koordinatorlariga Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining 2023-yil 29-martdaggi Qarori muvofiq ularning ta’lim olish shakli va o‘zlashtirish ko‘rsatkichidan qat’iy nazar oliy ta’lim muassasasining byudjetdan tashqari mablag‘lar hamda talabalarni rag‘batlantirish jamg‘armasi hisobidan har oyda bazaviy stipendiyaning uch baravari miqdoriga teng bo‘lgan tartibda qo‘srimcha moddiy rag‘batlantirish tavsiya etilishi.

Raislik qiluvchi

Kotib



M.Axmedova

A.Xudayberdiyev